

NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2024- YIL YANVAR-MAY (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 69-211-72-00




www.namstat.uz

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi



2024- yil yanvar-may oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-may oylarida Namangan viloyati korxonalarini tomonidan 9 711,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-may oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 109,6 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,5 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2024- yil yanvar-may oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoatining 110,2 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoati 114,1 % ga o'sishi hisoblanadi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat


2024- yil yanvar-may oylarida



2024- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7916,2 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,5 % ini tashkil etdi.




Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2023- yilning yanvar-may oylarida – 1,6 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 8,0 % (7,4 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 15,5 % (12,2 %) va quyi texnologiyalisi – 75,3 % (78,8 %) ni tashkil etdi.




2024- yil yanvar-may oylarida

Jami sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 37,2 % (2023-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 19,0 % (2023-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,7 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 3,6 % (2023-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 146,1 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,9 % (2023-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 72,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 4,1 % (2023-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,7 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



2024- yil yanvar-may oylarida



2024-yilning yanvar-may oylari davomida jami sanoatda 16,3 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 31,2 % ga kamaygan), 12,6 ming tonna paxta tolasi (40,0 % ko'paygan), 7,0 ming. tonna omuxta yem mahsulotlari (41,7 % ga kamaygan) hamda 19,6 ming tonna paxta chigiti (20,2 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	12,0	7,0	-5,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	23,7	16,3	-7,4
Paxta tolasi, ming tonna	9,0	12,6	3,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	3,1	5,7	2,6

2024- yil yanvar-may oylarida


Metallurgiya sanoati

2023- yilning yanvar-may oylarida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 65,4 % bo'lgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-may oylari yakunida metallurgiya sanoatining ulushi 3,1 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 2,1 martaga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 298,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 397,1 mlrd.so'mni yoki jami sanoat hajmining 5,3 % ni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 487,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 5,0 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1330,8 mlrd.so'mni, joriy 2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1477,8 mlrd.so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 147,0 mlrd.so'mga ortgan.



2024- yil yanvar-may oylarida

Ichimliklar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 219,8 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 370,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 150,7 mlrd. so'mga ko'paygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

2023- yil

119,7 %

2024- yil

150,4 %

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-may oylarida jami sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 106,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 103,6 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2217,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 yil

106,7 %

2024- yil

103,6 %

Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 11,8 % ni, ya'ni jami 886,7 mlrd. so'mni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-may oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 13,1 % ni tashkil etib, 1267,8 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2023-yilning mos davriga nisbatan 381,1 mlrd. so'mga oshgan.

2023- yil

106,3 %

2024- yil

117,3 %

2024- yil yanvar-may oylarida

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 169,9 mlrd. so'mni, jami sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oylarida Namangan viloyati bo'yicha 198,9 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 6,8 mlrd. so'mni tashkil etib, jami sanoatning 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 1,1 mlrd. so'mga ko'payib, 7,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, yani 117,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 77,3 mlrd. so'mga ko'paygan va 195,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




2024- yil yanvar-may oylarida

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2024-yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1678,0 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 17,3 % ini) tashkil etadi.

2024-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 528,8 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	2742,6	2581,3	-161,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	28,6	59,3	30,7

2024- yil yanvar-may oylarida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 98,7 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd. so'm	40,4	56,8	16,4
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	7,8	25,0	17,2


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 16,4 mlrd. so'm yoki 40,6 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek shahar xo'jaliklarining qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 25,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2024- yil yanvar-may oylarida

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1645,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 16,9 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2024- yil yanvar-may)

